

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UO'K: 37.013.42:378.147:78.071.4

**СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ****MODERN REQUIREMENTS FOR THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE
MUSIC TEACHER****BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA
QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR****Jo'raboyeva Dilobarxon Sherali qizi** 

Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Аннотация

В данной статье раскрываются современные требования к формированию профессиональной компетентности будущего учителя музыки. Анализируется сущность понятия «компетентность», составные элементы профессиональной компетентности, а также знания, умения и ценности, необходимые в деятельности учителя музыки. В исследовании показаны факторы совершенствования профессиональной подготовки педагога на основе современных образовательных стандартов и инновационных педагогических подходов.

Abstract

This article explores modern requirements for developing the professional competence of future music teachers. It analyzes the essence of the concept of competence, the structural components of professional competence, as well as the knowledge, skills, and values essential for the professional activity of a music teacher. The study highlights the factors that contribute to improving teachers' professional training based on modern educational standards and innovative pedagogical approaches.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qo'yiladigan zamonaviy talablar yoritilgan. Kompetentlik tushunchasining mohiyati, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari, shuningdek, musiqa o'qituvchisi faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim standartlari va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish omillari ko'rsatib berilgan.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, учитель музыки, квалификация, креативность, коммуникативность, методическая подготовка, современные подходы.

Keywords: professional competence, music teacher, qualification, creativity, communication skills, methodological preparation, modern approaches.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, musiqa o'qituvchisi, malaka, kreativlik, kommunikativlik, metodik tayyorgarlik, zamonaviy yondashuvlar.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining modernizatsiyasi jarayoni o'qituvchilardan nafaqat fanga oid bilimlarni, balki kasbiy kompetentlikning keng doirasini egallashni talab etmoqda. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasida bu jarayon o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning estetik didini, ijodkorlik salohiyatini va ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'qituvchining kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirish zarurligi ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi milliy ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi globallashuv davrida o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy

PEDAGOGIKA

yondashuvi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi, ularning ijtimoiy faolligini oshiruvchi shaxsga aylangan. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasi bu jarayonda o'ziga xos o'rin tutadi, chunki u o'quvchilarning estetik dunyoqarashini, milliy madaniyat va qadriyatlarga sadoqatini, musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu sababli bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining tubdan yangilanishi 20220-yil yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da hamda "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi"da o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda ta'lim jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, innovatsion yondashuv asosida dars tashkil etish va o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish kabi masalalar alohida e'tiborga olingan. Aynan shu jihatlar musiqa o'qituvchilari tayyorlash jarayonida ham metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosiy mezon sifatida joriy qilindi. Kompetentlik o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmui bo'lib, u shaxsning kasbiy faoliyatda samarali ishlay olish qobiliyatini ifodalaydi. Musiqa o'qituvchisi uchun bu nafaqat musiqa nazariyasi va amaliyotini bilish, balki pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, milliy va jahon musiqa merosini o'rgatish jarayonida estetik tarbiya berish qobiliyatidir.

Ta'lim jarayonining insonparvarlashtirilishi, raqamli ta'lim muhitining kengayishi va integrativ o'qitish metodlarining rivojlanishi bo'lajak musiqa o'qituvchisi kompetentligiga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, o'qituvchining kommunikativ, ijodiy, axborot texnologiyalaridan foydalanish, shaxsiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda musiqa darslarida nafaqat klassik usullar, balki multimediali resurslar, raqamli nota dasturlari (MuseScore, Sibelius), audio va video tahlil, interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda. Bularning barchasi o'qituvchidan yuqori kasbiy mahoratni, musiqiy didaktikani chuqur tushunishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, birinchi navbatda, uning kasbiy bilimlari, metodik mahorati, musiqiy ijrochilik ko'nikmalari va pedagogik refleksiyasini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z faoliyatida milliy musiqiy qadriyatlarni chuqur anglab, ularni zamonaviy talqin asosida ta'lim jarayoniga tatbiq etishi kerak. Chunki o'quvchi musiqiy asarlar orqali nafaqat estetik zavq oladi, balki o'z milliy o'zligini, madaniy ildizlarini his qiladi. Shu bois, musiqa o'qituvchisining kompetentligiga qo'yiladigan talablar faqat texnik yoki metodik jihatlar bilan cheklanmasligi, balki shaxsiy, ma'naviy va madaniy mezonlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Mazkur mavzuning dolzarbligi yana shundaki, hozirgi kunda ta'lim tizimida yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv kuchaymoqda. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun malakaviy amaliyot jarayoni – kasbiy kompetentlikni real sharoitda sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Shu jarayonda talaba nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llaydi, balki o'zining pedagogik pozitsiyasini, kreativ fikrlashini va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini namoyon etadi. Bu esa kompetentlikni shakllantirishning tabiiy mexanizmini yaratadi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosiy ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu jarayonda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi, ayniqsa, san'at ta'limida — jumladan musiqa pedagogikasi yo'nalishida — alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasi turlicha talqin qilinadi. A.V. Xutorskiy, E.F. Zeer, V.A. Slastenin kabi olimlar kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarga asoslangan kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi sifatida izohlaydilar. J. Raven esa kompetentlikni nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki insonning ijtimoiy faoliyatdagi o'zini namoyon etish imkoniyatlari bilan bog'laydi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar, xususan N. Xodjieva, G. G'afforova, D. Abdullaeva, U. To'xtayev va boshqalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini ta'lim mazmunining yangilanishi, metodik tizimlarning modernizatsiyasi va amaliy faoliyatga integratsiya qilinishi bilan bog'laydilar.

Ko'plab xorijiy manbalarda, jumladan OECD (Organization for Economic Cooperation and Development) va UNESCO hujjatlarida ham o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bo'lgan zamonaviy talablar keng yoritilgan. Ular orasida moslashuvchanlik (adaptability), raqamli savodxonlik (digital literacy), ijodkorlik (creativity) va hayot davomida ta'lim olish qobiliyati (lifelong learning) muhim komponentlar sifatida qayd etiladi.

Shu bilan birga, musiqa o'qituvchisi uchun maxsus kompetensiyalar — musiqiy tafakkur, eshitish madaniyati, ijro mahorati, musiqiy asarlarni tahlil qilish qobiliyati ham kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda bu jihatlari o'qituvchining umumiy kompetentlik tizimida madaniy va badiiy kompetentlik sifatida belgilanadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalar (kompetensiyaviy, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar)ga ko'ra, o'qituvchi tayyorgarligi faqat bilimga asoslanmasligi, balki faoliyatga tayyorlik, kommunikativ madaniyat, tashabbuskorlik va refleksiv tafakkurni rivojlantirishga qaratilishi zarur. Ayniqsa, musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ijodkorlik asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi darsda musiqiy materialni nafaqat tahlil etadi, balki o'quvchilarga uni his qilish, ijro etish, baholash, yangi ohanglar yaratish imkonini ham beradi. Bu jarayon ta'limni shaxsga yo'naltirishning eng samarali shaklidir.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida musiqa yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar bilan o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi muammolar mavjud: nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga to'liq tatbiq eta olmaslik, metodik refleksiya yetishmasligi. Shu bois, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimida zamonaviy kompetensiyaviy talablarga asoslangan texnologiyalarni joriy etish muhimdir.

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Nazariy tahlil metodi – kompetentlik nazariyasiga oid ilmiy manbalarni, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali konseptual asoslarni aniqlash.

2. Tizimli yondashuv – bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishni yagona tizim sifatida o'rganish (bilim, ko'nikma, qadriyat, tajriba o'zaro aloqadorligida).

3. Qiyosiy tahlil metodi – O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Rossiya, Finlyandiya, Yaponiya, AQSh) ta'lim tizimlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlantirish tajribalarini solishtirish.

4. Diagnostik metodlar – talabalar va o'qituvchilar orasida kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun so'rovnomalar, test va suhbat o'tkazish.

5. Pedagogik tajriba (eksperiment) – musiqiy ta'lim jarayonida kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan innovatsion uslublarni sinovdan o'tkazish.

6. Statistik tahlil – tajriba natijalarini matematik va statistik usullar bilan umumlashtirish, foiz va ko'rsatkichlar asosida natijalarni baholash.

Keltirilgan dalillar, qonuniy asoslar va tahliliy ma'lumotlar ushbu mavzuni ilmiy tadqiqot sifatida yanada chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, maqolaning keyingi qismlarida musiqa o'qituvchisi kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodologik asoslari, zamonaviy talablar tizimi va amaliy natijalari bosqichma-bosqich yoritiladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali, tizimli va bosqichma-bosqich kechadigan pedagogik hodisadir. Kompetentlik faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy tajriba, estetik did, ijodiy tafakkur va kommunikativ madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir.

O'rganilgan ilmiy manbalar, tajriba-sinov ishlari va pedagogik kuzatishlar natijasida quyidagi yo'nalishlar asosiy deb topildi:

Musiqiy-ijodiy faoliyatni integratsiyalash – talabalarni musiqani ijro etish, tahlil qilish va o'qitish metodlarini uyg'un holda o'rganishga yo'naltirish.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – musiqa ta'limida raqamli vositalar, multimedial platformalar, virtual cholg'ular va interaktiv dasturlarni qo'llash.

PEDAGOGIKA

Reflektiv yondashuv – o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, o'zini baholashi va o'z ustida ishlashi uchun sharoit yaratish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir talabada ijodiy qobiliyat, musiqiy eshitish, estetik sezgirlik va o'ziga xos uslubni rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Bugungi kunda musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga quyidagi zamonaviy talablar qo'yilmoqda:

Pedagogik moslashuvchanlik – turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuvni tanlash;

Raqamli savodxonlik – onlayn ta'lim resurslaridan, raqamli dasturlardan samarali foydalanish;

Kreativlik va innovatsion fikrlash – musiqa o'qitish jarayoniga yangi g'oyalarni tatbiq etish;

Muloqot va jamoada ishlash madaniyati – ansambl mashg'ulotlari, vokal va cholg'u darslarida hamkorlikni tashkil etish;

Kasbiy o'zini rivojlantirish – o'qituvchi sifatida doimiy o'qish, o'z ustida ishlash, zamonaviy metodlarni o'zlashtirish.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki:

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining 68 foizi o'z kasbiy tayyorgarligida nazariy bilimlarni yuqori baholaydi, biroq amaliy ijrochilik va metodik yondashuvlarda sustlik mavjud.

Talabalarning 75 foizi musiqiy ta'limda zamonaviy texnologiyalarni yetarlicha qo'llay olmasligini bildirgan.

Shuningdek, refleksiya va mustaqil o'zini baholash malakasi sust rivojlanganligi aniqlangan.

Shu asosda kasbiy kompetentligini oshirish uchun amaliy mashg'ulotlar tizimini qayta ko'rib chiqish, metodik seminarlar va ijodiy ustaxonalar tashkil etish, musiqiy loyiha asosidagi ta'limni joriy etish taklif etiladi.

Kasbiy kompetentlik — bu o'qituvchining bilim, ko'nikma, qadriyat va ijodiy faoliyatini bir butun tizimda amalga oshirish qobiliyatidir. Musiqa o'qituvchisi uchun u estetik did, ijro mahorati va pedagogik madaniyatni ham qamrab oladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish nazariya, amaliyot va ijodiy faoliyatning uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi raqamli, kreativ va kommunikativ kompetensiyalarni egallamagan holda raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish uchun multimodal metodlar, loyiha asosida o'qitish, talaba-o'qituvchi hamkorligi, va refleksiv monitoring tizimi zarur.

Musiqa o'qituvchisi tayyorlashda asosiy e'tibor musiqiy tafakkur, badiiy did, muloqot madaniyati va innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilishi lozim.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetentligiga qo'yilayotgan talablar, ayniqsa, musiqa yo'nalishida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun yanada dolzarb tus olmoqda. Musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim va metodik ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki estetik tafakkur, badiiy did, kommunikativ madaniyat va raqamli savodxonlikni ham bir butun sifatida namoyon eta olishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi. Bu jarayon o'qituvchining pedagogik, metodik, ijodiy, kommunikativ va axloqiy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarini o'zaro integratsiyalashgan holda amalda qo'llay bilish qobiliyatidir. U nafaqat o'qituvchining tayyorgarlik darajasini, balki uning kasbiy madaniyatini ham ifodalaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi zamonaviy ta'limda estetik, badiiy, ijtimoiy va texnologik kompetensiyalarni o'zida mujassam etishi zarur. Musiqa san'ati orqali talabalarda estetik tafakkur, emotsional idrok va milliy qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalash – uning asosiy vazifalaridan biridir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari (multimedia, raqamli cholg'ular, virtual musiqiy dasturlar, loyiha asosida o'qitish) kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Refleksiv yondashuv – bo'lajak o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'z ustida ishlash jarayonlarini kuchaytiradi. Bu esa o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy mustaqillikni ta'minlaydi.

Musiqa pedagogikasida kasbiy kompetentlik – bu faqat o'quv jarayoni natijasi emas, balki shaxsiy va madaniy o'sishning uzluksiz jarayonidir. Shu bois o'qituvchi kasbiy rivojlanishda uzluksiz ta'lim (lifelong learning) tamoyiliga amal qilishi lozim.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar – bu nafaqat metodik yoki kasbiy yo'riqnomalar majmui, balki o'qituvchi shaxsining barkamolligini, ijodkorligini va ijtimoiy faolligini ta'minlovchi konseptual yo'nalishdir. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshiradi, musiqiy madaniyatni rivojlantiradi va milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda targ'ib etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. — Toshkent, 1997.
3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Musiqa ta'limi yo'nalishi uchun DTS. — Toshkent, 2024.
4. G'aybullayeva, M. "Musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ahamiyati". — Pedagogik mahorat jurnali, №3.2023.
5. Shadiyev, "Musiqa o'qituvchilari tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar". — Oliy ta'lim va innovatsiyalar, №5.2022.
6. European Higher Education Area. Teacher Competence Framework. — Brussels, 2021.
7. Kim, S. (2020). "Music Pedagogy and Teacher Professionalism in Korea". — Journal of Arts Education, Vol. 18(2).